



XALQARO TADQIQOTLARDA BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA O'QISH SAVODXONLIGINI BAHOLASH BO'YICHA XORIJIY DAVLATLAR AMALIYOTI.

Ergasheva S.T.

Toshkent davlat pedagogika universiteti, "Boshlang'ich ta'limda ona tili va uni o'qitish metodikasi" kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada xalqaro tadqiqotlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'qish savodxonligini baholash bo'yicha xorijiy davlatlar amaliyoti haqida fikr yuritilgan. shuningdek, o'qish savodxonligi, o'qish jarayonida yuzaga keladigan muammolar bo'yicha xorijiy tajriba o'rganilgan. Tadqiqotlar natijasida o'qish savodxonligini rivojlantirish bo'yicha rivojlangan mamlakatlar tajribasi keltirilgan.

Kalit so'zlar: o'qish savodxonligi, xalqaro baholash, PISA, TIMSS, PIRLS, tahlil, matn, nutq.


Аннотация. В статье рассматривается практика зарубежных стран по оценке грамотности чтения у младших школьников в международных исследованиях. также изучен зарубежный опыт по вопросам грамотности чтения, проблемам, возникающим в процессе чтения. В результате исследований представлен опыт развитых стран по развитию читательской грамотности.

Ключевые слова: грамотность чтения, международная оценка, PISA, TIMSS, PIRLS, анализ, текст, речь.

Annotation. The article discusses the practice of foreign countries in international studies on the assessment of Reading Literacy in primary school students. also, foreign experience in reading literacy, problems arising in the process of reading was studied. As a result of the research, the experience of developed countries in the development of reading literacy is presented.

Keywords: reading literacy, International Assessment, PISA, TIMSS, PIRLS, analysis, text, speech.

O'qish savodxonligini tadqiq etishda ta'lim sohasidagi yutuqlarni baholash xalqaro assotsiatsiyasining (IEA) PIRLS tadqiqoti (Boshlang'ich sinf o'quvchilarining matnni o'qib tushunish darajasini baholash xalqaro tadqiqoti) mazkur assotsiatsiyaning 1991-yildagi o'qish savodxonligini tadqiq etish dasturiga qo'shimcha holda 2001-yildan joriy etila boshlandi. Har besh yilda o'tkaziladigan ushbu xalqaro tadqiqot bolaning mustaqil inson sifatida rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etib, boshlang'ich ta'limda tahsil olayotgan o'quvchilarning o'qib tushunish ko'nikmalarini xalqaro miqyosda baholaydi. Odatda, ushbu rivojlanish davrida o'quvchilar o'qish ko'nikmasini hosil qilgan bo'lib, endi bu ko'nikmadan boshqa fanlarni o'rganishda foydalanayotgan bo'ladi. PIRLS xalqaro tadqiqoti o'qish savodxonligini tadqiq etishda Ta'lim sohasidagi yutuqlarni baholash xalqaro assotsiatsiyasining (IEA)





o'quvchilarning matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan o'zlashtirish darajasini baholash tadqiqotiga (Trends in International Mathematics and Science Study–TIMSS) qo'shimcha tarzda ishlab chiqilgan.

PIRLS 2021 xalqaro tadqiqoti mazkur dastur doirasidagi 2001, 2006, 2011 va 2016-yillarda o'tkazilgan tadqiqotlarning davomi hisoblangan beshinchi davriylik sanaladi. Har bir o'tkaziladigan PIRLS tadqiqotida ishtirok etuvchi mamlakatlar soni ortib bormoqda. PIRLS 2021 xalqaro tadqiqotida taxminan 70 ga yaqin mamlakatlar, benchmark ishtirokchi sifatida qatnashadigan hamda 2001-yildan buyon avvalgi sikllarda ishtirok etgan ko'pgina boshqa mamlakatlar qatnashishi kutilmoqda. PIRLS 2021 xalqaro tadqiqoti 2001-yildan buyon qatnashib, natija ko'rsatib kelayotgan mamlakatlar bilan beshinchi bor 20 yil mobaynida ushbu yo'nalishda to'plangan yutuqlarini baham ko'radi. 2001-yilda IEA xalqaro assotsiatsiyasining o'qish savodxonligini baholash tadqiqotida qatnashgan mamlakatlar yangicha baholash tadqiqotini yaratish borasida IEA xalqaro assotsiatsiyasi va Boston kolleji bilan hamkorlik qilish istagini bildirdi. Bu esa PIRLS xalqaro tadqiqotiga o'quvchilarning matnni o'qib tushunish darajasini takomillashtirishlarida ularning ta'lim olish jarayonlari haqida ma'lumotlar to'plash imkonini berdi. 2001-yildan buyon PIRLS xalqaro tadqiqoti so'rovnomalarning asosiy tarkibi sifatida o'quvchilarning ota-onalari yoki vasiylari tomonidan to'ldiriladigan o'qishni o'rganish so'rovnomalari kiritildi. Shuningdek, har bir baholash davriyligi tarkibida PIRLS ensiklopediyasi ham mavjud bo'lib, u ishtirokchi mamlakatlar, jumladan har bir ishtirokchi mamlakat tomonidan ularning o'qish fani bo'yicha tuzilgan o'quv dasturlari va tadqiqot doirasidagi yo'riqnomalarini yoritib beruvchi bo'linga oid qiyosiy-tizimli ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

Har bir o'tkaziladigan tadqiqotda o'qish savodxonligiga nisbatan yuqorida keltirib o'tilgan ta'rif barcha yoshdagi o'quvchilar va keng turdagi yozma til shakllariga nisbatan qo'llanilishi mumkinligini, ammo bugungi texnologik jihatdan rivojlangan dunyoda soni tobora oshib borayotgan qator matnli ma'lumotlarni qabul qilish, maktabda va kundalik hayotda o'qib tushunish qobiliyatini qanchalik muhim ekanini teran his etadigan yosh o'quvchilarning o'qish ko'nikmasi va tajribalarining o'ziga xos jihatlarni yoritib berishni ta'minlash maqsadida qayta ishlab chiqilishini taqazo etadi. Endilikda, PIRLS xalqaro tadqiqoti tomonidan o'qish savodxonligiga nisbatan qo'llanilgan ta'rifi quyidagicha: O'qish savodxonligi tushunish va shaxs tomonidan qadrlanadigan va/yoki jamiyat tomonidan talab etiladigan barcha yozma til shakllaridan foydalana olish qobiliyatidir. O'quvchi turli shakldagi matnlardan mazmun hosil qiladi. Ular o'rganish, maktab va kundalik hayotda o'zlari kabi boshqa o'quvchilar jamoasiga qo'shilish va vaqtini samarali o'tkazish uchun o'qiydilar.

Ma'lumki, ta'lim tizimi va maktab dasturi turli mamlakatda bir-biridan farq qilishi mumkin. Shuning uchun tadqiqot tashkilotchilarining asosiy vazifasi turli mamlakatlardagi natijalarni bir-biri bilan taqqoslash maqsadida ma'lum bir mezonlarni ishlab chiqishdir. Misol uchun, qator mamlakatlarda bolalar maktab ta'limi





davrining dastlabki olti yili ichida savodi chiqara boshlasa, Angliya va Yangi Zelandiyada bu ko'rsatkich besh yilni tashkil etadi, shuning uchun ushbu davlatlarda to'rtinchi sinf emas, balki beshinchi sinf o'quvchilari loyihada ishtirok etadi. Matnni o'qish va tushunish sifatini baholashda o'quvchining o'rtacha yoshi 10,5 yosh deb olinadi, ammo Sharqiy Yevropada maktab ta'limining dastlabki yetti yilida o'quvchilarning savodi chiqadi, shuning uchun ushbu mamlakatlarning o'quvchilari o'rtacha 10,7 -10,9 yoshda tadqiqotda ishtirok etadilar. 2016-yilda o'tkazilgan PIRLS tadqiqoti natijalarini tahlil etadigan bo'lsak, tadqiqotda 50 ta mamlakat va 340000 dan ortiq o'quvchilar ishtirok etishgan. 2016-yilda o'qish savodxonligi bo'yicha Rossiya va Singapur o'quvchilari tadqiqotda ishtirok etgan 50 ta davlatlar orasida eng yaxshi natijalarni ko'rsatishgan. Tadqiqotda Rossiyaning 42 mintaqasidagi 206 ta ta'lim muassasasining 4577 ta boshlang'ich sinf bitiruvchilari ishtirok etgan bo'lib, mamlakat o'quvchilarining o'qish savodxonligi o'sishida barqaror ijobiy dinamika kuzatilgan. 2011-yildan 2016-yilgacha bo'lgan davrda o'g'il bolalar va qizlarining o'qish savodxonligi natijalaridagi farq kamayganini kuzatish mumkin. 2011-yilda bu 19 ball, 2016-yilda esa 14 ballni tashkil etganini guvohi bo'lamiz. Besh yil mobaynida o'g'il bolalar o'z natijalarini 15 ballga, qizlar esa 10 ballga yaxshilaganlar. Tahlil natijalariga ko'ra oxirgi 15 yil ichida ya'ni, 2001-yildan boshlab, rus boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligi darajasi sezilarli darajada oshgan. O'qish savodxonligi past bo'lgan o'quvchilar soni 2001-yildagi 16% dan 2016-yilda 5% gacha kamaygan.

Xalqaro tadqiqotlar natijalariga ko'ra o'qish savodxonligi bo'yicha yuqori natijalarga erishgan davlatlar nafaqat o'qishni turli yo'llar bilan, balki butun ta'lim jarayonini o'zgacha yondashuv asosida tashkil etishgani kuzatildi. Mamlakatlarda boshlang'ich sinflarda barcha fanlarni o'qitishning umumiy soati bir-biridan farq qiladi. Masalan, Singapurda bu ko'rsatkich yiliga 1040 soatni, Finlyandiyada 731 soatni va Rossiyada 4-sinfidagi barcha fanlarni o'rganish uchun o'rtacha 652 soat ajratilgan. Shundan, 263 soat ona tilini o'rganish uchun (41%, barcha mamlakatlar orasida eng yuqori foiz) va o'qish savodxonligi uchun 171 soat (27%) ajratilgan. PIRLS tadqiqotida ishtirok etgan mamlakatlarning qo'lga kiritgan natijalari va o'qish savodxonligi darslariga sarflangan soat o'rtasida hech qanday bog'liqlik aniqlanmagan. Oldingi tadqiqot natijalarining xulosasiga ko'ra, o'qish savodxonligini o'rgatish uchun ko'p vaqt emas, balki o'qitish sifati, o'qituvchining mahorati, darsda qo'llaniladigan o'qitish usullari ya'ni dars vaqtidan unumli foydalanish muhim ahamiyatga ega.

№	Mamlakatlar (o'rtacha ball)	Yillik umumiy soat (barcha fanlar)	Ona tilini o'qitish, jumladan o'qish, yozuv, badiiy adabiyot va boshqa.		O'qish savodxonligini o'qitish, jumladan boshqa fanlar tarkibida	
			O'quv yilidagi soatlar soni	Umumiy soatga nisbatan %larda	O'quv yilidagi soatlar soni	Umumiy soatga nisbata



						n %larda
1.	Singapur (576)	1040	278	27	124	12
2.	Angliya (559)	993	273	28	125	12
3.	Gonkong (569)	987	226	24	128	12
4.	ShimoliyIrlandiya (565)	958	257	27	137	14
5.	Simoliy Irlandiya (565)	915	206	23	150	16
6.	Tayvan (559)	845	212	2623	123	15
7.	Norvegiya (559)	827	186	19	134	17
8.	Polsha (565)	754	140	26	33	4
9.	Finlandiya (566)	731	186	41	122	17
10.	Rossiya (566)	652	263	27	171	27
	Xalqaro o'rtacha	898	242		156	18

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, Rossiyada dunyoning barcha mamlakatlarida bo'lgani kabi o'quvchilarning o'qishdagi eng yuqori yutug'i quyidagi omillar bilan bog'liq:

- Oilada bolani tarbiyalash uchun katta miqdordagi resurslarning mavjudligi (kitoblar, o'qish shartlari, yuqori darajadagi ta'lim va ota-onalarning kasbiy malakasi);
- Uyda yetarlicha ko'p elektron qurilmalarga ega bo'lish;
- Ota-onalarning o'qishga bo'lgan ijobiy munosabati.

Ko'rinib turibdiki, PIRLS kabi xalqaro tadqiqotlarda muvaffaqiyatli ishtirok etishdek muhim vazifani amalga oshirishda o'qituvchidan ta'limga yangicha yondashuvni va faollikni talab etadi.

ADABIYOTLAR:

1. O'quvchilarni xalqaro tadqiqotlarga tayyorlashga mo'ljallangan "Axborotnoma". 3-son. Toshkent: "Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazining matbaa bo'limi", 2021.140 b. 2. G'afforova T., Nurullayeva Sh., Mirzahakimova Z. O'qish kitobi (Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 2-sinfi uchun darslik). T.: Sharq, 2018. 176 b.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030- yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni.

3. Abdullaeva Sh. A. Hamkorlik pedagogikasi. -Toshkent: Fan va axborot texnologiyalari, 2017. - 67-b. 2. Nishanova Z., Qurbonova Z., Abdiyev S.





Psixodiagnostika va eksperimental psixologiya: o'quv qo'llanma O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. -T.: «TafakkurBo'stoni». 2011. 56-b.

